



TARAQQIYOTIMIZGA XIZMAT QILADI

3

BOLALAR QUVONCHI – BAXTDAN NISHONA

6

HUQUQBUZARLARGA JARIMA SOLINDI

8

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 30-May № 5 (1527)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



Har yili may oyining uchinchi yakshanbasi O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni sifatida keng nishonlab kelinadi. Bu yil ham "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasi kasb bayramini ko'tarinki kayfiyat bilan nishonladi.



BUGUNGI SONDA

BAYRAM
Metallurglar sharaflandi 2

KONSTITUTSIYA
Eng muhim kafolatlar 4

ZOLDIR
Yangi turdag'i dastlabki mahsulot 5

FAXRIYLAR
Hamisha e'tiborda 7

SO'RAGAN EDINGIZ
Qancha miqdorda pul to'lanadi? 9

SALOMATLIK
O'zingizni halokatga tashlamang! 10

SPORT
Bolalar futboli 11

IBRATLI DUNYO
Amalga oshmagan uch orzu 12

Mamlakatning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlashda kon-metallurgiya sanoatining ahamiyati muhimligini e'tibor-ga olib, 2021-yildan buyon har yili may oyining uchinchi yakshanbasi O'zbekiston Respublikasining Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni sifatida keng nishonlab kelinadi. "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasi bu bayramni ko'tarinki kayfiyat bilan qarshi oldi.

KASB BAYRAMINI TANTANALI NISHONLASHDI

Kasb bayrami munosabati bilan sexlarda atrofagi tarkibiy bo'linmalarni birlashtirgan holda bayram tadbirlari tashkil etildi.

17-may kuni Metall konstruksiyalar sexida, 18-mayda Elektrda polat eritish va Navli prokat sexlarida O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni munosabati bilan bayram dasturi bo'lib o'tdi. 19-may kuni Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexi hovlida bayram tadbirlari tashkil etildi. Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ibrohim Qodirov barcha metallurglarni kasb bayrami bilan tabriklab, ularga samimiy tilaklarini bildirdi.

Ushbu tadbirlarda "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi - bosh direktorining birinchi o'rinosari-rivojlanish bo'yicha direktor Sanjar Madiyarov, ishlab chiqarishni ta'minlash departamenti direktori Roman Garayev hamda Prokat majmuasi rahbari Olimjon Asatovlar ham ishtiroy etishdi.

Kasb bayrami munosabati bilan bir guruh ishchi-xodimlar Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan esdalik sovg'a va tashakkurnomalar bilan taqdirlanishdi. Ilg'or ishchi-xodimlarga kombinat "Tashakkurnomasasi" va qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.

O'tkazilgan bu bayram tadbirlarida Metallurglar madaniyat saroyining ijodiy guruhlari tomonidan tayyorlangan konsert dasturi tomoshabinlarga bayramona kayfiyat ulashdi.



BAYRAM DASTURXONI YOZILDI

Bayram munosabati bilan ko'p yillardan buyon kombinatimizda turli bayram tadbirlari tashkil etilishi an'anaga aylangan. Ana shunday tadbirlardan biri 19-may kuni tashkil etildi.

Kombinat boshqaruvi hamda kasaba uyushma qo'mitasining sa'y-harakatlari bilan tarkibiy bo'linmalarning oshxonalarida bayram dasturxoni yozilib, metallurglar uchun jami 1350 kilogram osh damlandi.



SPORT MUSOBAQALARI O'TKAZILDI



"Metallurg" sport majmuasida O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga bag'ishlab, 20-may kuni kombinat ishchi-xodimlar o'rta-sida sport musobaqlari bo'lib o'tdi.

Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan ushbu sport musobaqasi sportning stol tennisi, tosh ko'tarish, arqon tortish, yengil atletika va milliy kurash turlari bo'yicha o'tkazildi.

Qiziqarli va murosasiz o'tgan sport musobaqlarida g'olib va sovrindor bo'lgan ishchi-xodimlar Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Metallurglar madaniyat saroyida 19-may kuni Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni munosabati bilan navbatdagi bayram dasturi o'tkazildi.

METALLURGLAR SHARAFLANDI

Tadbirni O'zbekiston Metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari Kasaba uyushmalari Respublika Kengashi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'sratgan sanoat xodimi Ahmadjon Haqulov ochdi. U Ken-gash nomidan kombinatimizning ishlab chiqarishida o'z vazifalarini sidqidildan bajarayotgan bir qator metallurglarni "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'alarini bilan taqdirlardi.

Bayram tadbirida "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi - bosh direktor Rashid Pirmatov so'zga chiqib barchani kasb bayrami bilan samimiy muborakbod etdi. Kombinat mehnat jamoasi tomonidan ishlab chiqarish ko'sratkichlari bajarilayotganligi, investitsiyaviy loyihiilar amalga oshirilayotganligini aytar ekan, kombinat ishchi-xodimlarining mehnati tahsin va maqtovga loyiq ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev hamda kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ibrohim Qodirovlar so'zga chiqib, metallurglarni kasb bayrami bilan tabriklab, o'zlarining eng ezgu va samimiy tilaklarini bildirdilar.

Bayram tadbi davomida kombinatimizda uzoq yillardan buyon xizmat qilib kelayotgan bir qator metallurglar barchaga namuna bo'layotgan samarali mehnat faoliyatlari, kombinatimiz ravn-aqiga, erishilayotgan yutuqlarga qo'shayotgan munosib hissalarini uchun kombinat rahbariyati va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'alarini bilan taqdirlanishdi.

Bayram tadbi davomida harbiy qism komandiri Sobir Mamatqulov so'zga chiqib, metallurglarni kasb bayrami bilan



chin yurakdan tabriklab, ishlab chiqarishda ulkan zafarlar yor bo'lishini tiladi. Bayram munosabati bilan "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi - bosh direktor Rashid Pirmatovga kombinatda olib borayotgan mas'uliyatlari va sharaflari mehnati uchun "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'asi taqdim etdi.

Bayram tadbirida Metallurglar madaniyat saroyining badiiy havaskorlari tomonidan metallurglarimizga bayram tuhfasi sifatida ko'plab sahna chiqishlari namoyish etildi. Ular tomonidan ijro etilgan diltortar kuy-qo'shiqlar barchaga bayramona kayfiyat baxsh etdi.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbi "O'zmetkombinat" AJ madhiyasi bilan yakunlandi.

MEHNATGA MUNOSIB RAG'BAT

Kombinat boshqaruving O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni munosabati bilan 541-sonli buyrug'i chiqarildi.

Unga asosan kasb bayrami munosabati bilan kombinatning barcha tarkibiy bo'linmalarda ishlayotgan ishchi-xodimlar 1 150 000 so'mdan mukofot puli bilan taqdirlandilar.



"O'ZMETKOMBINAT" AJ VA
GERMANIYA O'Rtasida
SAMARALI HAMKORLIK

MEMORANDUM IMZOLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning taklifiga binoan joriy yil 2-3-may kunlari tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Ikki davlat o'rtaida keyingi yillarda tovar ayriboshlash va qo'shma loyihalari soni ikki barobar oshdi. Iqtisodiyotimizda Germaniya investitsiyalari hajmi 5,5 milliard yevroni tashkil etmoqda, shundan 4 milliard yevro oxirgi bir necha yilda jalb qilingan.

Tashrifdoirasida O'zbekiston va Germaniya o'rtaida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi, amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Bo'lib o'tgan qo'shma biznes-forumda "Yashil" energetika, qazib chiqarish, kimyo, farma-sevtika tarmoqlarida transport infratuzilmasini rivojlantirish, metallurgiya, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, innovatsiya, boshqa sohalardagi kooperatsiya loyihalari bo'yicha umumiyligi qiymati 9 milliard dollarlik savdo, investitsiyaviy va texnologik loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Jumladan, O'zaro manfaatli hamkorlik uchrashuvlari doirasida "O'zmetkombinat" AJ va "M7 METALS" o'rtaida metall prokatini sotish va metall mahsulotlari eksporti bo'yicha shartnomalar tuzish maqsadida memorandum imzolandi.

Ma'lumot uchun: "O'zmetkombinat" AJ "Quyuv prokatlash majmuasini qurish" loyihasi doirasida "Danieli GmbH" (Germaniya) korxonasi bilan asosiy texnologik asbob-uskunalar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzolagan. Hozirda, mazkur shartnomalar tuzishda ishlar bajarilmagda va texnologik asbob-uskunalar yetkazib berish jarayoni to'liq boshlangan.



O'ZBEKİSTONDA
9-IYUL KUNI RESPUBLİKA
PREZİDENTLİGİGA
SAYLOV O'TKAZİLADI

SAYLOV KAMPANIYASI BOSHLANDI

Mamlakatimizda muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi 2023-yil 9-iyul kuni o'tkaziladi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqarildi. Unga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110 va 128-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 66-moddasiga asosan 2023-yil 9-iyul kuniga muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi tayinlandi.

Ma'lumot uchun, 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha referendum o'tkazilib, o'zgarishlarni 90 foizdan ortiq saylovchilar ma'qullashdi. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlardan biri davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra, Prezident vakolat muddati hozirgi 5 yildan 7 yilga oshirilishi belgilangan.

Markaziy saylov komissiyasi 10-may kunidan saylov kampaniyasini boshlash haqida e'lon qildi.

Markaziy saylov komissiyasi Saylov kodeksiya muvofiq Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi hamda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirot etishga ijozat berishni so'rab taqdim qilgan hujjatlarini ko'rib chiqib, mazkur partiyalarga 2023-yil 9-iyul kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirot etishi uchun ijozat berdi.



XALQARO KONVENSIYA RATIFIKATSIYA QILINDI

Mehnat munosabatlari oida xalqaro Jeneva Konvensiyasi O'zbekistonda ratifikatsiya qilindi.

Prezident tomonidan imzolangan qonun bilan Xalqaro mehnat tashkilotining xodimlarni ish joyidagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranish-

lar tufayli yuzaga keladigan kasbiy xavf-xatardan himoya qilish to'g'risidagi 148-sonli Konvensiyasi (Jeneva, 1977-yil 20-iyun) ratifikatsiya qilindi.

Konvensiyaning asosiy maqsadi milliy qonunchilik yoki me'yoriy hujjatlar orqali ish joyidagi havoning ifloslanishi, shovqin va tebranishlar tufayli kasbiy xavf-xatarlarning oldini olish va cheklashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashdan iborat.

Konvensiyani ratifikatsiya qilishda tizimli nazorat choralarini, shu jumladan, ish joylarida mehnat sharoitlarini, zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini, mehnat jarayonlarining og'irligi va tig'izligini hamda asbob-uskunalarining jarohatlash xavflilagini baholash belgilangan.

Ushbu Konvensiya jahoning 47 ta davlati tomonidan ratifikatsiya qilingan.



TARAQQIYOT UCHUN XIZMAT QILADI

II Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tdi. Forumda yetakchi xalqaro kompaniyalar, jamg'armalar rahbarlari, chet davlatlarning taniqli iqtisodchi va ekspertlari ishtirokida jahon sarmoyasi tendensiyalari, "yashil" energetikani rivojlantirish istiqbollari, elektron tijorat va xalqaro miqyosda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va boshqa ko'plab dolzarb masalalar muhokama etildi.

Forumning ochilish marosimida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirot etib, nutq so'zlandi.

Forumning birinchi kuni "Biznesda-gi ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv" mavzusi asosida "ESG - biznes transformatsiya" deb nomlangan panel sessiyasiga bag'ishlandi. ESG (Environmental, Social and Corporate Governance) - kompaniya faoliyatining standartlari to'plamidir, investorlar ushbu standartdan foydalangan holda istiqboli investitsiyalarni tekshirishadi. ESG tamoyillari uchta qo'llanmaga asoslana-di: atrof-muhitga jiddiy munosabat, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruvning yuqori sifati.

Panel sessiyada "O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisi - bosh direktor Rashid Pirmatov ham ishtirot etdi. Rashid Husanovich o'z nutqida "O'zmetkombinat" Ajda ESG yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ishlar, bu borada rivojlanish davom etishini ta'kidlab o'tdi.

Forumda xorijiy investorlar tomonidan qator yo'nalishlarda muhim takliflar ilgari surildi. Tadbirda turli mavzudagi, yashil energiyadan innovatsion sanoatgacha, qishloq xo'jaligidan iqtisodiy tarmoqlarini raqamlashtirishgacha bo'lgan masalalar muhokama qilindi.

Forum doirasida umumiyligi qiymati 7 milliard 833 million dollarlik 164 shartnomalar imzolandi. Kelishuvlarning 97 tasi investitsiyaviy, 67 tasi savdo bitimi. Xorijiy investorlar, yirik xorijiy kompaniyalar, vazirlilik va idoralar hamda mahalliy korxonalar o'rtaida tuzilgan ushbu shartnomalar orqali mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan qator loyihalalar amalga oshiriladi.



INSON HUQUQLARIGA OID ENG MUHIM KAFOLATLAR

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun 1-maydan kuchga kirdi.

Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiyadolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlariga oid 10 ta eng muhim kafolat bilan tanishing!

* Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

* Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir.

* Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlarning, davlat organlari va ularning mansabдор shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

* Hech kimga uning roziligidiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.

* Insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralar mutanosiblik prinsipiiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

* Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

* Har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlansh, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega.

* Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

* Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

* Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas.

YANGI MEHNAT KODEKSIDAN

Mehnat shartnomasida xodimni kamsitadigan shartlar bo'l shiga yo'l qo'yilmaydi.

Mehnatga natura shaklida haq to'lash taqiqlanadi.

Ishdan bo'shatish nafaqasi 200 foizgacha to'lanadi.

Dam olish kuni bayram kuniga to'g'ri kelsa keyingi kunga ko'chiriladi.

Ish beruvchining xodimdan mehnat shartnomasida shartlashilmagan ishni talab qilishi taqiqlanadi.

Xodim har xil malaka talab etiladigan ishlarni bajarganda unga yuqori malaka bo'yicha haq to'lanadi.



MEHNAT JAMOASI KONFERENSIYASI

YANGI JAMOA SHARTNOMASI QABUL QILINDI

Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJning 2022-yilda jamoa shartnomasi va shartnoma ilovalarining bajarilishi hamda 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan yangi jamoa shartnomasini qabul qilish bo'yicha mehnat jamoasining konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Konferensiyada 2022-yilda jamoa shartnomasi va shartnoma ilovalarining bajarilishi bo'yicha "O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov hamda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ibrohim Qodirov 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan yangi jamoa shartnomasini qabul qilish bo'yicha nutq so'zladı.

Shuningdek, konferensiyada "O'zmetkombinat" AJ Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va ekologiya departamenti direktori Ahmadjon Uzoqov jamoa shartnomasi va shartnoma ilovalarining 2022-yilda bajarilishi to'g'risidagi

dalolatnomasi bilan yig'ilganlarni tanishtirdi.

Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ibrohim Qodirov 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan yangi jamoa shartnomasini qabul qilish bo'yicha nutq so'zladı.

Konferensiyada O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining bo'lim boshlig'i Mahmudjon Isayev so'zga chiqib, mamlakatimizda kasaba uyushmalari tomonidan olib borilayotgan ishlar va kelgusi rejalar haqida ma'ruza qildi.

Konferensiya davomida ishtirokchilardan kelib tushgan savollarga kombinat boshqaruv raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov, Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev hamda kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ibrohim Qodirovlar javob berdilar.

"O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasining 2022-yilda jamoa shartnomasi va shartnoma ilovalarining bajarilishi qoniqarli deb baholandi va 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan Yangi jamoa shartnomasi to'g'risidagi qaror loyihasi konferensiya qatnashchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

MEHNAT MUHOFAZASI VA XAVFSIZLIGI BO'YICHA KO'RIK-TANLOV VAKILLARIMIZ TAQDIRLANISHDI

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Toshkent viloyati Kengashida "Mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish" Respublika ko'rik-tanloving viloyat bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Unda viloyatdagi korxona va tashkilotlarda mehnat muhofazasi yo'nalishi bo'yicha yuqori natjalarga erishgan ish beruvchilar, kasaba uyushmasi qo'mitasi raislari, mehnat muhofazasi mutaxassislaridan bir guruhi "Eng yaxshi korxona", "Eng yaxshi kasaba uyushma qo'mitasi", "Eng yaxshi mehnat muhofazasi vakili", "Eng yaxshi mehnatni muhofaza qilish yosh mutaxassisi" kabi nominatsiyalar bo'yicha taqdirlandi.

Ushbu tadbirda kombinat mehnat muhofazasi bo'limi boshlig'i Gulmira Toshmatova "Eng yaxshi mehnat muhofazasi yosh mutaxassi



si" nominatsiyasi bo'yicha hamda "Eng yaxshi mehnat muhofazasi vakili" nominatsiyasi bo'yicha ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi muhandisi Ulug'bek Nasriddinovlar 1-o'rinni egallashdi. Ular tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Yillik asosiy ta'til muddati kamida 21 kalendar kun etib belgilanadi.

Xizmat tekshiruvi o'tkazish tartibi belgilandi.

Xodimlarga ish haqi qisman saqlanadigan qo'shimcha ta'tillar berilishi mumkin.

Ayollarga homilani antenatal (tug'ruqqa-ch) parvarishlash uchun qo'shimcha bo'sh kunlar beriladi.

3 yoshgacha bolasi bor ayollarni ishdan bo'shatish asoslari kengaytirildi.

Ayrim toifadagi xodimlar uchun sinov muddati 3 oydan 6 oygacha uzaytiriladi.

Xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtinchalik xizmat safariga yuborish tartibi belgilandi.

Ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi mehnat shartnomasini o'zgartirishga asos bo'ladi.

Ishga qabul qilinayotgan 18 yoshga to'limgan shaxslarga dastlabki sinov belgilanmaydi.

YANGI TURDAGI DASTLABKI MAHSULOT

Bundan 30 yil muqaddam, ya'ni 1993-yilda 1-navli prokat sexida po'lat zoldirlar prokatlash stani qurilishi boshlangan edi. Oradan 1 yil o'tib, 1994-yil may oyida yillik quvvati 100 ming tonnaga ega bo'lgan po'lat zoldirlar stani foydalanishga topshirildi. Mustaqillik yillarida kombinatda yangi turdag'i mahsulotlarning eng birinchisi – po'lat zoldirlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ular Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinatlarida rudani maydalashda, shuningdek, sement sanoatida ishlatiladi.

2001-yilda 120 mm. diametrli zoldir ishlab chiqaradigan yangi stan ishga tushirildi. Bu mamlakatimizga chetdan shunday zoldirlar keltirilishi to'xtatishga va yiliga 100 mln. AQSH dollaridan ko'proq mablag' tejashta imkon berdi.

2008-yilda po'lat zoldirlar prokatlash stani modernizatsiya qilinishi yakunlandi va yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 180 ming tonnaga yetkazildi. Asbob-uskunalarini modernizatsiyalash jarayonida transport rolganglar konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritildi. Bu ishlab

chiqarish unumdorligini 30 foizga oshirdi.

So'nggi yillarda Zoldir prokati sexida mehnat sharoitlarini yaxshilash, samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo'yicha bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, sexning 1-qizdiruv pechi rekonstruksiya qilinidan so'ng mahsulotlar ishlab chiqarish quvvati keskin oshirilishi erishildi. Bu rekonstruksiya tufayli sex yiliga 250 ming tonnadan ko'p po'lat zoldirlar ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ldi.



MUVAFFAQIYATLI NATIJA

"O'zmetkombinat" AJning uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarida Yagona logistika markaziga qarashli Temir yo'l xizmatining munosib hissasi bor. Hozirgi kunda Temir yo'l xizmatida 11 ta teplovoz, 187 tadan ortiq yuk tashish vagoni hamda 5 ta temir yo'l krani mavjud. Kombinat hududidagi temir yo'l izlaringin uzunligi 65 km.dan ziyoddir.

Temir yo'l xizmati bugungi kunda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ortig'i bilan bajarib, muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. Temiryo'lchilar kombinatga eng zarur xomashyolar, temir-tersak parchalari va asbob-uskunalarini o'z vaqtida yetkazib beryapti. Shu bilan birga kombinat hududidan yuqlarni manzillariga olib borish hamda kombinat hududida yuk tashish ishlarini ham bajarishmoqda.

Temir yo'l xizmati jamoasi 2023-yilning 4 oyida mehnatda yaxshi natijalarga erishdi. Yil boshidan buyon temiryo'lchilar tomonidan kombinatga 366 000 tonna yuk olib kirildi. Kombinatdan tashqariga 225 000 tonna yuk tashildi. Shu bilan birga kombinatning o'zida 2 000 000 tonna yuk tashildi va belgilangan 4 oylik reja 108 foizga ado etildi.

Bundan tashqari, Temir yo'l xizmatida yanvar - aprel oylarida bir qator ahamiyatga molik ishlar bajarildi. Jumladan, Teplovozlarni ta'mirlash uchastkasida 35 ta teplovoz ta'mirlanib, reja 109 foizga bajarildi. Temir yo'l ta'mirlovchilar tomonidan kombinatga qarashli 17,215 km. temir yo'l izlari joriy ta'mirlandi va reja 105 foizga uddalandi. Vagon tozalovchilar tomonidan kombinat hududida 6 527 dona vagon tozalanib, reja 105 foizga bajarildi. Temir yo'l kranlarida yuqlab-tushirish xizmati tomonidan 5 140 tonna yuklash-tushirish ishlari amalga oshirilib, reja 104 foizga ado etildi. Bu davrda 15 tonnadan ortiq yoqlig'i-moylash mahsulotlari iqtisod qilindi.

Sheroz SHUKURALIYEV.



Mahsulotlar ishlab oshishi bilan birga ularning tannarxi ham arzonlashtirilib borildi. Tabiiy gaz sarfi, metallning is gazi va to'ponga o'ziga xos yo'qotishlari har tonna prokat mahsulotlari ishlab chiqarishda sezilarli ravishda kamaytirildi. Pechning ishlab chiqarishi oshirildi.

Disk rolgang rekonstruksiya qilindi. Nati-

jada bu qurilmada ba'zi ehtiyoj qismlarini qo'llashga hojat qolmadidi. Qurilmaning ishlashida shovqinlari kamayishiga hamda uning qismlarini ta'mirlash yoki almashtirish vaqtining sezilarli ravishda qisqarishi, yog'lash xarajatlari 40 foizga cha kamayishi kabilarga erishildi.

Hozirgi kunda Zoldir prokat sexidan diametri 40, 50, 65, 70, 80, 100 hamda 120 mm. bo'lgan po'lat zoldirlar ishlab chiqarilib, iste'molchilarga yetkazib berilmoqda.



MEHNAT MUHOFAZASI

XAVFSIZ HAYOT ASOSI

Mehnat muhofazasi inson hayoti va faoliyati bilan bevosita bog'liq. Insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobilyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar mehnat muhofazasining asosiy vazifalaridandir. Korxona rahbariyati tomonidan mehnat jarayoni

3462 ta kamchilik, 2022-yil 3410 ta kamchilik aniqlangan.

Aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tarkibiy bo'linmalar boshliqlari bilan hamkorlikda profilaktika ishlarini olib borilmoqda.

Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va ekologiya departamenti tomonidan 2022-yil 1569 nafar odamga kirish yo'rqnomalari o'tilgan. Shundan 992 nafari amaliyotchilar, 306 nafari yangi ishga kirganlar va 271 nafari kombinatga tashrif buyurganlarni tashkil etadi.

Joriy yilning 4 oyida 442 nafar kombinatga ishga kirayotgancha mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha o'qitildi, yo'rqnomalarni berildi va bu boradagi bilimlari sinab ko'rildi. Doimiy faoliyatdagagi komissiya tomonidan 1665 nafar kombinat tarkibiy bo'linmalari rahbar va mutaxassislari attestasiyan o'tkazildi.

Kasblar ichida metallurgiya eng og'ir mehnat sharoitli kasblardan biri sanaladi. 2021-yil kombinatda 18 ta baxtsiz hodisa ro'y bergan bo'lsa, 2022-yilda 12 ta shunday hodisa sodir bo'ldi. Baxtsiz hodisalar avvalgi yilga nisbatan 6 taga kamaydi.

Joriy yilning 4 oyida kombinatda 4 ta baxtsiz hodisa sodir bo'ldi. Bunday holatlarning sodir bo'lmasligini, qanday sharoitda bo'lmasin ishchi-xodimlarning mehnat muhofazasini ta'minlash rahbariyatning asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Rustam QARSHIYEV.



da qo'llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitari-gigiena, davo-lash-profilaktika chora-tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida korxonamiz Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va ekologiya departamenti kombinatda mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlariga qat'iy rioya etilishi, ishlash sharoitlari, ishchi va xodimlarni belgilangan tartibda maxsus kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishlarini nazoratga olishgan.

2022-yilda kombinatda mehnat muhofazasi bo'yicha rejalaشتirilgan 58 ta tadbirdan 58 tasi bajarildi.

2023-yilning 4 oyida kombinatda yong'inga yo'l qo'yilmagan. 2021-yil sexlarda yong'in xavfsizligi bo'yicha

ATROF-MUHIT MUSAFFOLIGI BARCHAMIZGA DAXLDOR

Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish har doim davlat va jamiyat hayoti uchun o'ta muhim masalalar dan bo'lib kelgan. Ayniqsa, ekologik muammolar jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan hamda global muammoga aylangan hozirgi bir sharoitda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Global iqlim o'zgarishlari, havo harorati ko'tarilishi, Orol dengizining qurishi, salbiy meteorologik jarayonlarning takrorlanishi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanmaslik, o'simlik, hayvonot genofondining yomonlashuvi kundan-kunga chuqurlashib borayotgan muammolardan dalolat bermoqda. Shu bois ham yurtimizda tabiat muhofazasiga davlat siyosati darajasiga e'tibor qaratilib, shu yo'nalishni tartibga soladigan qonunchilik bazasini bugungi kun talabi dajasida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratib kelinayotir.

Kombinatimizda ham ekologik holatni yanada yaxshilash bo'yicha keng hajmli ishlar amalga oshirilmoqda. Sexlar jahon andozalariga mos gaz, chang tozalash qurilmalari bilan jihozlanmoqda. Kombinatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashda ham energetika resurslarini tejamlovchi, tabiatga chiqit chiqarmaydigan dastgoh, asbob-uskunalar ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Tarkibiy bo'linmalarda atrof-muhit musaffoligini ta'minlash bo'yicha har yili qator tadbirlar rejalashtirilib, ular to'liq amalga oshirilayapti. 2023-yilda kombinatda atmosfera havosi, suv dunyosi, o'simlik dunyosi, yer resurslarini yaxshilash bo'yicha 50 ta cho-

ra-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Havo havzasini himoya qilish bo'yicha 19 ta, suv havzasini muhofaza qilish bo'yicha 14 ta, o'simlik dunyosi va yer resurslarini himoya qilish bo'yicha 17 tadbir ishlab



chiqilgan. Mana shu tadbirlar asosida tarkibiy bo'linmalarda atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli moddalarni kamaytirish, o'simlik dunyosi, yer resurslarini yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar rejalashtirilib, ular amalga oshirilib kelinmoqda.

Ish joylarida chang miqdorini, ularning atmosferaga chiqishini kamaytirish, shuningdek, gaz tozalash uskunalarida taftish va nazoratlar, havo tortish qurilmalarida yumshoq moslamalar va qo'shimcha moslamalarni almashtirish, flansli o'lchagichlardan havo surilishini bartaraf etish bo'yicha ishlar bajarildi.



Bugun kombinatimiz hududiga kirgan kishi og'ir sanoat korxonasingin obod va ko'rkmiligiga quil qolmay iloji yo'q. Kombinatimiz katta yashil bir maydonga aylangan. Barcha joylarda gullar, manzarali daraxtlar ekilmoqda. Ayniqsa, sex va tarkibiy bo'linmalardagi xiyobon va maydonchalar turli tuman gullarga burkanib, yam-yashil maysalar maydoni kengayib bormoqda.

Jannatmakon yurtimizning tabiatni betakror bo'lib, sharoiti esa hayot kechirishimiz uchun juda ham boy ekologik imkoniyatlarga egadir. Garchi shunday ekan, hammamiz ona tabiatimizni ko'z qorachig'idek asrashimiz, uning ekologik holatni yanada yaxshilashga mas'ulligimizni doimo his qilib turishimiz hamda kelgusi avlod uchun ekologik musaffo muhitni yaratishda kuch va g'ayratimizni ayamasligimiz kerak.

Diyor ZULFIQOROV.

HAMMAMIZ UCHUN MUHIM HAR BIR KISHI MAS'UL BO'LISHI KERAK!

Kishi hayotda har xil vaziyatga tushishi mumkin. Insonning kutilmaganda biror-bir falokatga duch kelishi ehtimoldan xoli emas. Jumladan, avtohalokat ro'y berishi, yong'in sodir bo'lishi mumkin. Ko'pchilik shunday vaziyatlarda nima qilishni, qanday harakatlanishni bilmay, esankirab qoladi.

Buni hech kimga ravo ko'rmaymiz, masalan, sizning ish joyingizda kutilmaganda yong'in kelib chiqdi, deylik. O'zingizga kelib, haqiqiy holatni anglab yetguningizgacha olov kattalashib, xavfli ko'rinish oladi.

Shunday holatda xona burchagidagi birlamchi yong'in o'chirish moslamasiga ko'zingiz tushdi. Turgan gapki, uni olib, ishlashiga urinasiz. Lekin undan foydalanish bo'yicha zarur ko'nikmaga ega emassiz. Natijada mazkur moslama siz uchun oddiy matohga aylanadi. "Tilsiz yov" esa o'zining yovligini qilishda davom etadi.

Shuning uchun bunday paytda qanday harakatlanishni, falokat sodir bo'lganda yong'in o'chirish moslamalaridan foydalanishni bilish hammamiz uchun juda muhimdir. Ayni paytda favqulodda vaziyatlar hamda yong'in xavfsizligi targ'ibot-tashviqot tadbirlarida ham ana shu jihatlarga katta e'tibor qaratilmoqda.

"O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari korxona va tashkilotlar, maktabgacha ta'lim muassasalarida ishchi-xodimlarni yong'in o'chirish mashinalari, texnik asbob-uskunalar, birlamchi yong'in o'chirish vositalarini ishlash tartibi, foydalanish usullari bilan tanishtirmoqdalar.

Yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalariiga rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilmoqda. Shu bilan birga, ishtirotchilar e'tiboriga yong'inlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bilan bog'liq, holatlar amalda namoyish etilmoqda.

B. SULXONOV,
**"O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarida
YOXTTEB profilaktika va
nazorat bo'linmasi inspektori, leytenant.**

D. NOMOZOV,
bo'linma katta inspektori, leytenant.



1-IYUN - XALQARO BOLALARНИ HIMoya QILISH KUNI

BOLALAR QUVONCHI – BAXTDAN NISHONA

Barchamizga ma'lumki, 1-iyun kuni dunyo davlatlarida "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" sifatida nishonlanadi. Bu kun bolalarga ko'rsatayotgan mehru muhabbatimiz yanada oshadi. Park va attraksionlar, turli bolalar oromgohlari, teatrlar bolalar bilan to'lib-to-shadi. Barcha yaxshi narsalar ularga bag'ishlanadi.

Xalqaro bolalarni himoya qilish kunini nishonlash orqali keng jamoatchilik diqqatini muammo li bolalarga, ularning huquqlarini himoya qilish, himoyalangan dunyoda yashash imkoniyatiga, baxtli bolalikka ega bo'lishlari va o'z mamlakatining to'la-to'kis va xotirjam fuqarosi bo'lib o'sishlariga erishishga qaratiladi.

Kombinatning muktabgacha ta'lim muassasalarida kichkintoylarning sog'lom va barkamol voyaga yetishlari uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan. "O'zmetkombinat" AJ homiyligida yaqin ikki ming nafar bolajonlar tarbiyalanayotgan 9 ta muktabgacha ta'lim muassasi barcha zarur mod-

diy-teknik jihozlar bilan ta'minlangan. Ularda bolalar salomatligini mustahkamlash, eng go'zal damlari shodlikka, xursandchilikka to'la o'tishi uchun harakat qilinyapti.

Kombinatning muktabgacha ta'lim muassasalarida ham Xalqaro bolalar ni himoya qilish kuni har yili tantanali nishonlanadi. Bu yil ham tarbiyalanuvchilar ishtirokida turli xil sport musobaqalari va madaniy tadbirlar tashkil etiladi.

Bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz egalaridir. Binobarin, ularni asrab-avaylash, har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish davlat, har bir oila, har bir ota-onanining muqaddas burchidir.

FAXRIYLAR HAMISHA E'TIBORDA

Mamlakatimizda keksa kishilarga alohida ehtirom ko'rsatilishi an'anaga aylangan. Metallurgiya sohasida ishlab pensiyaga chiqqanlarga ham imtiyozlar, qulayliklar yaratib berilmoxda. Faxriylarning boy professional hayot tajribasidan samarali foydalanish, keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, davlat tomonidan ijtimoiy himoyani, moddiy va ma'nnaviy qo'llab-quvvatlashni yanada yaxshilash, shuningdek, yosh mutaxassislarni tanlash va tarbiyalashda pensionerlar va mehnat faxriylarining noyob tajribalari, amaliy mahorati va salohiyatidan faol foydalanish maqsadida Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Kengashning Bekobod shahar hududiy filiali ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda.

E'ZOZ VA QADR

"O'zmetkombinat" Ajda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab bir qator tadbirilar o'tkazildi. Bu tadbirlarning aksariyatini kombinat va Kengashning Bekobod hududiy filiali hamkorligida tashkil etildi.

Xotira va qadrlash kuni oldidan Metallurglar madaniyat saroyida "Uch avlod uchrashuvi" o'tkazildi. Mehnat faxriylari, tajribali hamda yosh metallurglar bayram dasturxoni atrofida suhbat qurishdi.

Kombinat boshqaruvi raisining o'rnbosari Akmal Sharipov hamda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ibrohim Qodirovlar 9-may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan kombinatda ko'p yillar mehnat qilib, bugungi kunda nafaqada bo'lgan mehnat fronti qatnashchilarining xonadonlariga borishib, ularning xolidan xabar olishdi. Ularni bayram bilan qutlab, ezgu tilaklar bildirishib, Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan bir

necha turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini topshirishdi.

Yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni keng nishonlandi. Ushbu bayram munosabati bilan Respublika Konchilik va metallurgiya faxriylar Kengashi Bekobod hududiy filiali tomonidan "Baxt uyi" to'yxonasida bayram dasturxoniyozildi.

Bayram tadbiriga "O'zmetkombinat" Ajda uzoq yillar samarali va fidokorona mehnat qilgan 300 dan ziyod mehnat faxriylari tashrif buyurishdi.

Tadbirda Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev, "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi - bosh direktor Rashid Pirmatov, Respublika Konchilik va metallurgiya faxriylar kengashi raisining o'rnbosari Bahodir Xalilov, Faxriylar Kengashi Bekobod hududiy filiali boshlig'i Ilhom Qurbonovlar yig'ilganlarni kasb bayrami bilan tabriklashdi.

Shuningdek, mehnat faxriylaridan Abdusamat Ro'ziqulov hamda Nina Yuldashevalar so'zga



chiqib, o'zlarining dil izhorlarini bildirishdi.

Bayram tadbirida Metallurglar madaniyat saroyi jamoasi tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga zavq ulashdi.

Bahodir RAHMONQULOV.

Faxriylarning sa'y-harakatlari bilan kombinatimizning oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligi tobora mustahkamlanib bormoqda. 23- va 25-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashining Bekobod hududiy filiali vakillarining tashabbusi bilan Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti, uning Olmaliq filiali va Moskva po'lat va qotishmalar instituti Olmaliq filialining o'qituvchi hamda talabalari "O'zmetkombinat" AJga ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish maqsadida kelishdi.

HAMKORLIK TOBORA MUSTAHKAMLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashining Bekobod hududiy filiali xodimlari talabalarga hamrohlik qilishdi. Ular yoshlarga o'z mehnat va hayot tajribalari haqida gapirib berdilar.

Talabalar kombinat faxriylari bilan uchrashuvlarda ularning hayotiy va sanoatdagi mehnat tajribalari bilan tanishmoqda. Bu talabalarga soha pensionerlari va faxriylarining boy kasbiy tajriba va ko'nikmalaridan unumli foydalanishga katta imkoniyat beradi.

Talabalar kombinat tarixi muzevida bo'lismib, mamlakatimiz sanoatining yetakchilaridan biri bo'lgan ulkan sanoat korxonasining qurilishidan tortib, bugungi kundagi rivojlanishigacha bo'lgan yo'li bilan tanishib oldilar.

Shundan so'ng ular Elektrda po'lat eritish, Navli prokat, Rangli metallar ishlab chiqarish sexlarida ishlab chiqarish jarayonini borib ko'rishdi.

Metallurgiya sohasida o'qiyotgan talabalarga sexlar, ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish juda muhim. Chunki, ular oliy o'quv yurtlarida nazariy tomonidan o'rganayotganlarini amalda o'z ko'zlarini bilan ko'rish orqali olayotgan bilimlarining ishlab chiqarishda naqadar zarur bo'lishini anglab yetadilar. Shu bilan birga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, ularni o'zaro bog'lash uchun nimalar qilish kerakligi haqida ham tasavvurlarga ega bo'lismi.

Natijada yaxshi o'qish kelajakda qanchalik muhimligini tushunib o'qishga yanada jiddiy qaraydilar. Talabalarning faxriylar bilan muloqotlari, "O'zmetkombinat" AJ bilan yaqindan mana shunday ta-

nishuvlari ularning nazariy bilim olishlariga juda yaxshi ma'noda turtki beradi.

Inomjon JANGIROV.



YOSHLARGA O'RNAK KO'RSATISHDI

21-may kuni shahrimizdag'i 11-son umumta'lim maktabida "Respublika yosh shaxmatchilar" musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod shahar hududiy filiali tashabbusi bilan faxriy metallurglar ham norasmiy ishtirok etishdi.

Qiziqarli va murosasiz o'tgan musobaqada faxriylarimizdan 1-o'rin Dlyaver Muratovga, 2-o'rin Viktor Djurayevga, 3-o'rin Tursunboy Turdiqulovga nasib etdi.

TENNISCHILAR BELLASHUVI

Metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod shahar hududiy filiali tomonidan ko'plab sport musobaqalari o'tkazib kelinmoqda.

Metallurglar kasb bayrami munosabati bilan 17-may kuni Tennis kortida faxriy metallurglar o'rta-sida katta tennis musobaqasi bo'lib o'tdi. 18-may kuni esa stol tennis musobaqasi ham tashkil etildi. Har ikkala musobaqada ham faxriy metallurglar faol ishtirok etishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra katta tennis musobaqasida 1-o'rinni Yevgeniy Baranov, 2-o'rinni Shaxidbek Yuldashev, 3-o'rinni Burxon Ataxanovlar egallashdi. Stol tennis bo'yicha erkaklar o'rta-sida 1-o'rin Hamid Xojimatov, 2-o'rin Anatoliy Kosyanov, 3-o'rin Murod Amnovlar, ayollar o'rta-sida esa 1-o'rin Marina Kaplenko, 2-o'rin Natalya Xan, 3-o'rin Lyubov Churilovalarga nasib qildi. Musobaqa so'ngida ularga esdalik sovg'alari topshirildi.

Ravshan BOLTABOYEV.

HAR QANDAY JINOYAT - XAVFLI ILLAT

O'z manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo'yish, xalq, davlat, korxonalar mulkiga o'z foydasi yo'lida zarar keltirish eng yomon illatlardan hisoblanadi. Insonlar bundaylarga nafrat ko'zi bilan qarab kelgan. Chunki, davlat va jamiyat, xalq taraqqiyoti va farovonligining eng katta dushmanlari ana shulardir. Qachonki bunday noplak insonlarni oramizdan yo'qotsak, albatta, mamlakatimiz ham eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishiga shak-shubha yo'q.

Afsuski, undaylar halni oramizda bor.

Ular orasida katta-katta korruptionerlar bilan birga mayda tashmachilar ham o'rinni olgan. Biroq, boshqalar mulkini talon-taroj qilganlar bir kun kelib, albatta qo'lga tushadi.

Joriy yilning 2-mart kuni kombinatimiz mulkini talon-taroj qilmoqchi bo'lgan uchta huquqbuzarning siri fosh etildi. 2023-yil 2-mart kuni huquqbuzar Muhritdin Xolmurotov, Qodirjon Rahimov va Ilyas Tashbayev oldindan til biriktirib, "O'zmetkombinat" AJning 2-nazorat o'tish punktidan devori oldiga kelishlarini so'raydi.

Shu kuni M. Xolmurotov eski ish joyidan qolib ketgan kirish ruxsatnomasi orqali "O'zmetkombinat" AJning 2-nazorat o'tish punktidan korxona ichkarisiga kiradi.



QILMISH - QIDIRMISH

Avval ishlagan joyidagi o'ziga tegishli ish qurollari bilan birga sotish maqsadida yig'ib yurgan "bronna" rangli metall parchalarini yashirinchka kombinatdan olib chiqmoqchi bo'ladi.

Soat taxminan 10:00 larda tanishlari Q. Rahimov va I. Tashbayevlarga qo'l telefonida qo'ng'iroq qilib, "O'zmetkombinat" AJning 2-nazorat o'tish punktining devori oldiga kelishlarini so'raydi.

Sheriklari kelganlaridan so'ng M. Xolmurotov "O'zmetkombinat" AJ hududi ichidan devor orqali qo'lqoplar ichiga solingan rangli metall parchalarini ular tomonaga devor oshirib uloqtiradi. Devor ortidagilar mazkur rangli metall parchalarini sotish maqsadida olib ketmoqchi bo'lgan vaqtida ularni harbiy soqchilar ushlab olishadi.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Muhritdin Xolmurotov, Qodirjon Rahimov va Ilyas Tashbayevlar ayblariiga to'liq iqrar bo'lishdi. Bu holat boshqa takrorlanmasligiga va'da berishib, qilgan ishlari uchun kechirim so'rashdi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi ochiq sud majlisida ma'muriy jazo qo'llash haqida qaror qildi. Unga asosan huquqbuzarlarga qilmishlariga yarasha jarima solindi.

Daliliy ashyo tariqasida olingan rangli metall parchalari "O'zmetkombinat" AJga qaytarilib topshirildi.

Farhod ZOKIROV, Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi sud'yasi.

SUD MAJLISIDA

Huquqbazarlik – huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. Har qanday sababu bahonalar bilan bunday qilmishlarni sodir etish shaxsni tegishli jazolardan saqlab qolmaydi.

HUQUQBUZARGA JARIMA SOLINDI

Joriy yilning 29-mart kuni ochiq sud majlisida huquqbazar Ilhom Akramov (ismi, familyasi o'zgartirilgan) ishi ko'rildi. U 2023-yil 14-mart kuni "O'zmetkombinat" AJ hududidan 20 941 so'mlik rangli metall parchalarini noqonuniy tarzda olib ketishga uringan. Kombinatning 4-sonli nazorat o'tish punktidan rangli metall parchalarini yashirin ravishda olib chiqib ketayotgan vaqtida harbiy qism xizmatchilari tomonidan ushlangan.

Sud majlisida u aybiga to'liq iqrarlik bildirib, iqtisodiy ahvoli og'irligidan bu ishga qo'l urganligini bildirdi. Qilgan ishidan pushaymonligini, bu holat boshqa takrorlanmasligini, kechirim so'rashini ta'kidlab, jazo tayinlashda yengillik berishni so'radi.

Sud, huquqbuzarga jazo tayinlashda uning qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, farzandining sog'lig'i sababli oilaviy va moddiy sharoiti og'irligini javobgarlikni yengillashtiruvchi holat, uning harakatlarida og'irlashtiruvchi holatlar yo'q deb hisobladi.

Sud qarori bilan Ilhom Akramov O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-modda 1-qismiga asosan, MJtKning 33-moddasini qo'llab, bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solindi.



ISLOHOTLAR SAMARASINI YO'QQA CHIQARADI

Barchaga ayonki korrupsiya – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Oddiy til bilan aytganda, har qanday pora olish, berish va unda vositachilik qilish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, mansab vakolatidan chetga chiqish, mansab vakolatidan foydalanim talon-taroj qilishning barchasi bu korrasion jinoyatlarni tashkil qiladi.

Korrasiya islohotlarning samarasini yo'qqa chiqaruvchi illat. Aynan shu illat sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda afsuski, korrasiya illati ham o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lib kelmoqda.

Bu yovuz baloning oldini olmasak jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi.

Ma'lumki, korrasiya har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar etkazadi. Jamiyatning axloqini emiradi, qonun ustuvorligini kuchsizlantiradi, fuqarolarining huquq va erkinliklarining jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, jinoyatchilik, terrorizm va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa tahdidlarning o'sishiga yordam beradi. Uning

domiga ilingan amaldor shaxsiy manfaatini davlat manfaatidan ustun qo'yishi natijasida, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazadi, chet ellik sheriklarda ham ishonchszlik uyg'otadi va ularni hamkorlikdan qaytaradi.

Korrasiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qiliga kirishil-sagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Zero, korrasiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida axborotni xabar qiluvchi shaxslar rag'batlanitiriladi hamda "Korrasiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga asosan korrasiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo'lishi kafolatlanadi.

Qur'oni karimda korrasiya, poraxo'rlik, "otkat", tovlamachilik kabi botil yo'llar bilan pul



topishning bu usullarini bevosita taqilagan. Payg'ambarimiz pora beruvchini va pora oluvchini la'natlagan. Alloh taolo taqilagan, payg'ambarimiz la'natlagan poraxo'rlarg'a, korrasionerlarga qarshi kurash har birimizning burchimiz.

Shu bois, mamlakat taraqqiy etishi va undagi xalq farovon yashashi uchun barchamiz birdek mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimiz, taraqqiyot kushandasini bo'lgan bunday salbiy illatga qarshi murosasiz kurashda faol bo'lishdan cho'chimasligimiz lozim. Farovon hayotimizni ta'minlash uchun korrasiyaga qarshi kurashda birlashsak albatta maqsadimizga yetamiz.

Ismat DIYOROV.

NODAVLAT OTMLARNING DIPLOMI O'TADIMI?

Nodavlat universitetda o'qiyman. Mutaxassisligim kombinatdagi sohalarga to'g'ri keladi. Men diplom olsam u kombinatda o'tadimi?

I. Fayziev.

Nodavlat oliy ta'limga muassasalari talabalariga davlat OTMlari namunasi-dagi diplom beriladi va ular bir xil kuchga ega bo'ladi.

Ta'limga to'g'risidagi qonunning 31-moddasiga asosan Davlat ta'limga standartlari va davlat ta'limga talablariga muvofiq ta'limga xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'limga tashkilotlari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'limga



to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

Nodavlat ta'limga muassasining litsenziyasi borligini qaerdan bilsa bo'ladi? Litsenziyaga ega bo'lgan nodavlat OTM ro'yxati ta'limga sifatini nazorat qilish inspeksiyasining rasmiy saytida e'lon qilib boriladi.

ZARAR O'RNNINI QOPLASA JAVOBGARLIK DAN OZOD ETILADI?

Men mashinada avtohalokatga uchradim. Aybim bilan ikki kishi jarohat oldi. Menga qanday jazo beriladi?

Jinoyat kodeksining 266-moddasining 1-qismiga ko'ra transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda



jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Endi qarang! Jinoyat kodeksining 661-moddasi yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb nomlanib, ushbu Kodeks 266-moddasining birinchi qismida (transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Demak, agar jabrlanuvchi siz bilan yarashsa jinoiy javobgarlikdan ozod etilasiz.

S. Qobilov.



"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga ko'ra erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lganda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda yoshga doir pensiya olish huquqiga

54 YOSHDAN KIMLAR PENSIYAGA CHIQADI?

Erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga to'lganda pensiyaga chiqishlari belgilangan. Lekin ishlaydigan aksariyat ayollar 54 yoshdan pensiyaga chiqariladi. Buning qanday sababi bor?

K. Niyozbekova.

ega bo'ladilar.

Ushbu Qonunning 121-moddasiga asosan ushbu Qonun 37-moddasining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan kamida yigirma yillik ish stoji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

QANCHА MIQDORDA PUL TO'LANADI?

Yaqinda kasal bo'lib ikki hafta davolandim. Mening bemorlik kunlarimga ishxonadagi o'rtaча mehnat haqqim saqlanadi?

S. Salimova.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizoming 27-28-bandlariga asosan:

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, yangidan paydo bo'ladigan xatarli o'simtalar, jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklar, OITS, moxov (lepra) kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo'yicha hisobda turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lagan davrining (umumi ish stajining) davomiyligiga bog'liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

a) umumi ish stoji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 100 foizi miqdorida;

b) umumi ish stoji 5 yildan 8



yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;

v) umumi ish stoji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida to'lanadi.

Boshqa kasalliklarga chalingan xodimlarga vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik bo'yicha nafaqa quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

a) umumi ish stoji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sag'ir) yetimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;

b) umumi ish stoji 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

DAVLAT TOMONIDAN QANDAY YORDAM KO'RSATILADI?

Uyimga quyosh panellarini o'rnatib, uning yordamida xonadonimni tok bilan ta'minlamoqchiman. Bu ishni amalgalashishga qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida umumi quvvati 100 kWt gacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk va yer solig'idan hamda yuridik shaxslar umumi taromoqqa sotgan elektr energiyasi bo'yicha foya solig'idan 3 yil muddatga, o'rnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'limgan quvvatga ega elektr

D. Xalilov.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shu qaror asosida umumi quvvati 100 kWt gacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk va yer solig'idan hamda yuridik shaxslar umumi taromoqqa sotgan elektr energiyasi bo'yicha foya solig'idan 3 yil muddatga, o'rnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'limgan quvvatga ega elektr

energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatilgan bo'lsa – 10 yil muddatga ozod etiladi;

Aholi xonadonlariga kichik umumi quvvati 50 kWt gacha bo'lgan quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturi amalga oshiriladi.

Uning doirasida jismoniy shaxslarga tegishli obektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z istemoldan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiiga Davlat budgetidan 1000 so'mdan subsidiya ajratiladi.



Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

ENDI PENSIONERLARNI ISHDAN BO'SHATIB BO'LMAVDIMI?

Avvallari pensionerlar bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish mumkin edi. Yangi Mehnat kodeksida shu borada o'zgartirishlar kiritilganmi?

U. Orziqulova.

Joriy yilning 30-apreldidan kuchga kirgan Mehnat kodeksining 161-moddasida mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish tartibi keltirilgan bo'lib, unda "xodimning pensiya yoshiga to'lganligi, qonunchilikka muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo'lganda" degan bandi chiqib ketgan.

Bu Mehnat kodeksining 155-moddasiga asosan mehnat shartnomasini bekor qilishning 11 asosi ko'rsatib o'tilgan. Bu muddada ham pensionerlar haqida hech qanday band kiritilmagan.

Shu sababli ish beruvchilar pensiya yoshiga to'lganligini sabab qilib, xodimlari bilan mehnat shartnomasini bekor qila olmaydi.

31-MAY – XALQARO KASHANDALIKKA QARSHI KURASH KUNI

O'ZINGIZNI HALOKATGA TASHLAMANG!

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda dunyoda 1,5 milliard kishi sigaret chekadi. Bu ko'rsatkichning yildan-yilga o'sib borayotgani jahonda o'ta xavotirli vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Ahvol shu darajaga yetdiki, butun insoniyatga mazkur illat keltirayotgan iqtisodiy hamda ma'naviy zararning oqibatlari va ko'lamini hisoblashning imkoniy yo'q.

JSST ma'lumotiga ko'ra, tamaki tutuni tarkibida 4000 dan ziyod zaharli moddalar mavjud. Bu zaharli moddalar ta'siri natijasida har yili 8 milliondan ziyod kishi tamaki chekish oqibatida hayotdan ko'z yummoxda. O'limlarning 7 milliondan ortig'i bevosita tamaki iste'moli tufayli, 1,2 millionga yaqini esa chekmaydigan, lekin tamaki tutuni ta'sirida bo'lgan kishilar bilan ro'y



beradi.

So'nggi taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda yurtimizda 2,8 million nafardan ortiq doimiy chekuvchilar bo'lib, ularning yarmidan ko'pining hayoti xavf ostida qolmoqda.

TURLI KASALLIKLAR KELTIRIB CHIQARADI

Tamaki 25 dan ziyod turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. 100 gramm tamaki yongan chog'i 5-7 gramm tutuni ajralib chiqadi va 20 soniya davomida qonga tushib, markaziy asab tizimiga faol ta'sir etadi. Natijada, inson tanasida turli kasalliklar – saraton, qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish, yurak infarkti, miyaga qon quyilishi, o'pka sili, nafas a'zolaring yallig'lanishi kabi kasalliklari ehtimoli kuchayadi.

Tamaki davosi yo'q bo'lgan 14 ta kasallikning kelib chiqishiga ham sabab bo'ladi. Jumladan, o'pka saratoniga chalinganlarning 96 foizi aynan kashandalar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, bronx-larda paydo bo'ladigan kasalliklarning 92 foizini, oyoq tomirlari

devorining qalinlashib, torayib, qon o'tmay qolishi natijasida sodir bo'ladigan oyoq panjalari qorason kasalligining 95 foizini, oshqozon osti bezi rakining 72 foizini, qovuq raking 70 foizini keltirib chiqaradi.



"CHEKMAYDIGAN KASHANDA"

Odatda chekuvchilar bilan yaqin masofada o'tirib, ular bilan birga nafas oluvchilar "chekmaydigan kashanda"lar sanaladi. Bundaylar haqiqiy kashandalardan kam zararlanmaydi. Demak, "men chekmayman-ku", deya xotirjam bo'lish ham kerak emas ekan.

"Chekmaydigan kashanda" bolalarda tez-tez kuzatiluvchi shamollashlar, surunkali bronxit, astma, aqli zaiflik va onkologik kasalliklar, o'pka, bo'yurak, bosh miya raki ko'proq uchraydi.

"Chekmaydigan kashanda" bo'lgan ayollarda ko'krak saratoni kelib chiqishi xavfi yuqori bo'ladi.

STATISTIKA SO'ZLAGANDA...

Yaqinda qiziq statistika e'lon qilindi. Unga ko'ra, xitoyliklar jahondagi eng "kashanda" xalq ekan. Keyingi o'rnlarda Indoneziya, AQSH, Hindiston, Rossiya, Yaponiya, Bangladesh, Vietnam kabi davlatlar bor. Dunyodagi har uchinchi chekuvchi esa xitoylik sanaladi.

Markazi Osiyoga keladigan bo'lsak, tamaki iste'mol qiladigan aholi foizi Qirg'izistonda eng yuqori ekan (27 foiz). Keyingi o'rnlarni Qozog'iston va O'zbekiston egallagan. (24 va 12 foiz). Tojikiston va Turkmaniston bo'yicha ma'lumotlar mavjud emas.

**CHEKISHNI TASHLASHNING
BIR NECHA SAMARALI YO'LLARI
BOR. ULARDAN SIZGA MOS
KELADIGANINI TANLANG.**

CHEKISHNI TASHLASH UCHUN TAVSIYALAR

Bir quti sigaret sotib olayotganda uning narxini yozing va oy oxirida qancha tejash mumkinligini hisoblang.

Chekishni birdaniga yoki asta-sekin tashlash mumkin. Asta-sekin chekishni tashlaganda, kuniga sigartet chekishni kamaytirib boring yoki birdaniga chekishni butunlay tark eting.

Agar chekishga juda kuchli ehtiyoj sezсангиз, chekishni darhol va butunlay tashlagанинг ма'қул. Chekishni tashlashдан bir yoki ikki kun oldin odatdagidan ikki baravar ko'p sigaret cheking. Tana nikotin va tamakining boshqa zararli tarkibiy qismlari bilan to'yingan bo'ladi. Ko'p chekkaningizdan ko'nglingiz aynib chekishning zararli ekanligini keskin his qilasiz. Qachon chekkingiz kelsa bu haqda o'ylasangiz sigaretdan voz kechishingiz osonroq bo'ladi.

● Agar ishdagi vaziyat sizni chekishga undasa, u holda chekishni tashlash uchun ishlamaydigan kunlarni – shanba yoki yakshanba, bayram, ta'til – yoki ish safari davrini tanlang.

● Har kuni har kanday usul bilan, birinchi sigaretani chekish vaqtini iloji boricha kechiktiring.

● O'zingiz bilan sigaret olib yurmang.

● Xonadan kuldornlarni, zajigalkalarini – umuman, chekishni eslatuvchi barcha narsalarini olib tashlang. Qarindoshlar, do'stlar, bolalar davrasida chekishdan saqlaning. Televizor tomosha qilayotganda chekmaslikka harakat qiling.

JAMOAT JOYLARIDA CHEKISH QANCHAGA TUSHADI?

Jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish jarimaga sabab bo'ladi.

Ish joylarida, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylarda, shu jumladan, avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida va boshqa jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish, bundan tamaki mahsulotini iste'mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylar va xonalar mustasno, - bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi miqdorida (110 ming so'm) jarima solishga sabab bo'ladi.

Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 56-1-moddasi bilan tartibga solingan.

SAHIFANI SHIFOKOR M. DO'SMURODOV TAYYORLADI.

JSST OGOHLANTIRADI

Tamaki chekish tufayli har yili 8 million inson va 600 million daraxt nobud bo'ladi. U 200 ming hektar yer va 22 milliard tonna suvni yaroqsiz holatga keltirib, biz nafas olayotgan Yer atmosferasiga 84 million tonnaga yaqin zahar chiqaradi. Bu haqida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) hisobotida ma'lum qildi.

"Faktlar juda halokatl. Tamaki sanoati biz bilgan eng katta ifloslantiruvchilardan biri", - deydi JSST vakili Ruediger Krech AFP axborot agentligiga bergan intervyusida.

Uning ta'kidlashicha, har yili okeanlar, daryolar, yo'llar va plyajlarga 4,5 trillion dona sigaret qoldig'i tashlanadi. Har bir qoldiq 100 litrgacha suvni ifloslantirish xususiyatiga ega ekan.

BOKS: JAHON CHAMPIONATI**O'ZBEKISTON
BIRINCHI
O'RINNI OLDI**

Yaqinda Toshkent shahrida boks bo'yicha Jalon championati bo'lib o'tdi. O'zbekiston delegatsiyasi musobaqada 9 ta medal (5 oltin, 2 tadan kumush va bronza) qo'lga kiritgan holda umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Bu medallar soni va sifati bo'yicha O'zbekistonning Jalon championatlaridagi eng yaxshi natijasi bo'ldi.

Umumjamoa hisobida Qozog'iston (4 oltin, 1 kumush) ikkinchi bo'ldi. Rossiya (2 oltin, 4 bronza) esa uchinchi o'rinni oldi. Shuningdek, Kuba va Fransiya terma jamoalari bittadan oltin medal olishdi.

-51 kg. vazn toifasida Jalon championligini qo'lga kiritgan Hasanboy Do'stmatov musobaqaning eng yaxshi bokschi si deb topildi. O'zbekiston delegatsiyasi esa eng yaxshi terma jamoa nomiga loyiq ko'rildi.

COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA.

O'YINLAR MUROSASIZ KURASHLAR BILAN O'TMOQDA**AUTSAYDER G'ALABA QOZONDI**

Championat autsayerlaridan biri bo'lgan "Buxoro"-ga qarshi safarda 9-tur doirasida 4-mayda o'tkazilgan uchrashuvda muxlislarmiz "Metallurg"dan ijobiy natija kutishgani bor gap.

Birinchi taymni maydon egalari ham ehtiyyotkorlik bilan, biroz cho'chigan holda boshlashdi. Buning natijasida dastlabki daqiqalarda ustunlik bekobodliklar tomonida bo'ldi. Biroq taym o'talariga kelganda esa mezbonlar katta hududiy ustunlikka erishishdi. 35-daqqada Ro'zimboy Ahmedov Aleksandr Lobanov bilan yakkama yakqa chiqdi va vaziyatdan unumli foydalandi - 1:0.

Ikkinci taymda tezkor qarshi hujumlarda vaziyatlar yarata boshladik. Lekin shu kuni hujumchilardan omad yuz o'girdi. O'z navbatida "Buxoro" jamoasi ishonchli himoyalandi. Natijada bu hisob o'zgarmay qoldi.

**IMKONIYAT BOY BERILDI**

"Metallurg" 10-turda 15-may kuni o'z maydonida O'zbekiston milliy championatlarining eng ko'p sovrindori - Qarshining "Nasaf" futbol klubiga imkoniyatni boy berdi.

Bungacha boy berilgan uchrashuvlardan farqi o'laroq "Nasaf"ga qarshi o'yinni "Metallurg" kutilmaganda juda yaxshi boshladi. 3-daqiqadayoq keng maydon bo'ylab boshlangan kombinatsiya gol bilan yakunlandi. O'ng qanotda sheriklaridan to'jni qabul qilib olgan Shahzodbek G'ofurbekov hujum yo'naliшини keskin o'zgartirdi va to'jni chap qanotga yetkazib berdi. Ergash Ismoilov esa to'jni o'ziga o'nglab oldi va jarima maydoniga kirmsandan kuchli zarba berdi. To'p darvozaning yuqori burchagiga borib tushdi - 1:0.

Shundan so'ng "Nasaf"da hisobni tenglashtirish uchun qator imkoniyatlar bo'ldi. 69-daqiqada Muhammadali Alikulov mehmonlar hujumchisi Oybek Bozorovni jarima maydonidan tashqarida qopollik bilan to'xtatib qoldi.

"O'zmetkombinat" AJ bolalar va o'smirlar futbolini rivojlantirishga munosib hissasini qo'shib kelmoqda. 2021-yilda "O'zmetkombinat" AJ tomonidan "Metallurg" futbol klubi qoshida "El Golazo Academy Powered by Real Madrid" futbol akademiyasi tashkil etildi.

19-IYUN - JAHON BOLALAR FUTBOLI KUNI**YETUK FUTBOLCHILAR YETISHIB CHIQADI**

Bu futbol akademiyasida futbolchilar tarbiyalash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Akademiyada 12 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan saralab olingan yigitlar tarbiyalanadi. Yosh futbolchilar akademiyada futbol mashg'ulotlarida qatnashish bilan birga maktabda O'zbekiston ta'llim standartlariga asoslangan fanlar bo'yicha ham tahsil olishadi.

O'tgan yili futbol akademiyasining tarbiyalanuvchilari Ispaniyada bo'lishdi. Ular "Real" klubni futbol akademiyasining malakali murabbiylari bilan mashg'ulot o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bu yil Osiyo Futbol Konfederatsiyasining maxsus komissiyasi "El Golazo Academy Powered by Real Madrid" bolalar va o'smirlar futbol akademiyamizni "ikki yulduz" maqomi bilan taqdirladi.

Bunday maqom nafaqat faxr, balki ayni paytda ulkan mas'uliyatdir. Endilikda klub akademiyasi

Osiyo mintaqasidagi mashhur akademiyalarga tenglashtirilgan.

Yaqin kelajakda bu akademiyadan mamlakat, jahon miqyosidagi yetuk futbolchilar yetishib chiqadi.



O'yinni juda sifatli boshqarib borgan To'rabet Suyunov ikkilanib o'tirmay hushtagini chaldi va "Metallurg" davozasi tomon jarima zarbasini belgiladi. Biroq voqealar rivojiga VARdagilar aralashib, penalti belgilandi. "Nasaf" penaltidan unumli foydalani hisobni tenglashtirdi - 1:1.

O'yin tugashiga besh daqqaqoq qolganda "Nasaf" o'n kishi bo'lib qolishiga qaramasdan kompensatsiya vaqtida g'alaba golini ham urib ketdi - 1:2. "Metallurg" esa o'z muxlislari qarshisida uchinchi mag'lubiyatini, mavsumdagi oltinchi mag'lubiyatini qabul qilib oldi.

YANA MAG'LUBIYAT

Milliy chempionatning 11-turida Toshkent shahrida "Surxon" jamoasi mehmoni bo'ldi.

20-may kuni o'tkazilgan bu uchra shuva "Metallurg" yana imkoniyatni boy berdi - 1:0.

O'yinning

12-daqiqasida "Metallurg" dan Ergash Ismoilov raqibining oyog'ini bosib olishi oqibatida maydondan chetlatildi.

Legionerlarimiz orasida eng maqtaydiganimiz Kerim Palich yo'q joyda xatoga yo'l qo'ydi va Kasminin bilan birgalikda to'jni raqibga topshirishib, golga hammulliflik qilishdi.

Ikkinci taymda maydonga tushirilgan yangi kuchlar o'yin tizimini keskin o'zgartirib yuborishdi. Endi tashabbus bekobodliklar tomoniga o'tdi. Hududiy ustunlik qo'lga olingach hujumlar keskin tus ola boshladi. Omad kelmasa qiyin ekan. "Surxon" esa ochiqchasiga o'yinni cho'zdi va vaqtini g'alabagacha olib bordi.

**O'ZBEKISTON
KUBOGI****OMAD
KELMADI**

10-may kuni mamlakat kubogining S guruvida 2-tur uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Bekobodning "Metallurg" jamoasi Toshkentda "Bunyodkor" mehmoni bo'ldi.

S guruhidagi barcha to'rtala jamoada birinchi turdan keyin 1 tadan ochko bor. O'yinda g'alaba qozongan jamoa guruh peshqadamiga aylanar edi.

Bu o'yinda "Metallurg" kichik hisobda imkoniyatni boy berdi. Bu gal ham bekobodliklar o'yin bo'yicha raqibga yutqazmadni, biroq yakunni natija mag'lubiyat.

Bu yil deyarli o'yin amaliyotiga ega bo'lmayotgan o'yinchilar dastlabki daqiqalaridan maydonga tashlandi. Ular bir birlari bilan "til topishib olgunlariga" qadar birinchi taymning yarmi o'tib bo'ldi. Tanaffusga chiqib ketish arafasida gol o'tkazib yubordik. O'ng qanotda Rasul Yo'ldoshev Abdujalil Manazarovni aldab o'tib, jamoadoshi bilan "devor kombinatsiyasi"ni amalga oshrdi va jarima maydoni ichida aniq zarba bilan hisobni ochdi - 1:0.

Ikkinci taymda "Metallurg" tashabbusni o'z tomoniga og'dirib oldi. Faqat hujumi yakunlashda yigitlardan omad yuz o'girdi va jamoamiz mag'lubiyatni qabul qilib oldi.

**Jamol XURSHIDOV,
jamoatchi muxbir.**

*IBRATLI DUNYO*IBRATLI DUNYO*IBRATLI DUNYO*IBRATLI DUNYO*IBRATLI DUNYO*IBRATLI DUNYO*IBRATLI DUNYO

AMALGA OSHMAGAN UCH ORZU

Bir odamning uch orzusi bor ekan... U katta maoshli ishi, go'zal turmush o'rtog'i bo'lishini va olamga mashhur bo'lishni xohlarkan. Kunlarning birida o'sha odam taniqli firma ga ishga kirish uchun otlanibdi. Yo'lda keta-yotganida uning yo'lida bir qariya yomon yiqilib tushibdi. Agar unga yordam berib, g'amxo'rlik qilsam qabulga kechga qolaman, bu bir pyonista bo'lsa kerak, deb xayolidan o'tkazib, qariyaga yordam bermabdi. Ammo u baribir ishga qabul qilinmabdi, suhbatdan o'ta olmabdi.

Kunlarning yana birida ko'chada sayr qilib yursa ko'cha artistlari ajoyib tomosha ko'rsatayotgan ekanlar. U mazza qilib tomoshani ko'ribdi.

Atrofdagi odamlar artistlarni olqishl shibdi. U bo'lsa yo'lida davom eta boshlabdi. Shunda uning yoniga kampir qiyofasidagi aktrisa yugurib kelib tomosha haqidagi fikri ni so'rabi. Haligi odam kampirdan jirkanib javob bermasdan ketib qolibdi.

Yana bir yomg'irli kunda u odamning ko'zi uning uyi oldidagi o'rindiqda yig'lab o'tirgan bir yupun ayolga tushibdi. Ayol undan bir tunga boshpana so'rabi, lekin u odamning ayolga yordam bergisi kelmabdi va shoshilib issiqliqna uyiga kirib ketibdi.

Yillar o'tib o'sha odam bir umr ro'shnolik ko'rmay olamdan o'tibdi va u dunyoga borganida farishtaga hayotini nolib so'zlab beribdi.

"Esingdami, - debdi farishta, - yiqilib tushgan qariya sendan tayanch istab qo'lini cho'zgandi, o'sha qariya sen ishga joylashmoqchi bo'lgan firma boshlig'ining otasi

edi. Orqangda esa unining o'g'li otasi tomon shoshib kelayotgandi... Aktrisa kampirni eslaysanmi - u aslida go'zal, yosh ayol edi, u seni yoqtirib qolgandi, u seni baxtli qilishi mumkin edi, sen rad etting... va nihoyat eshiging yonida sendan boshpana so'ragan ayol yodingdam? O'sha ayol mashhur adiba edi, u o'sha kuni nihoyatda daldaga muhtoj edi... sen unga yordam bergenigda - shubhasiz sen haqingda "eng yaxshi inson" deya doston yozardi... afsuski sen hech kimga yordam bermading. Agar ularga yordam beringanida hamma orzularing amalga oshgan bo'lar edi va bu yaxshiliklarining ajr-savobi bu dunyo jannatiga yo'l ochar edi... Afsus..." - debdi...

Xulosa: Ikki dunyo saodatini qilgan yaxshi amallaringdan topasan.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Har qanday qurilishda birinchi poydevor qilinadi. Qurilish pastdan tepaga qarab quriladi. Biroq, faqatgina bir holatda qurilish tepadan pastga qarab quriladi va poydevori eng oxirida o'rnatiladi. U nimaning qurilishi?

Dunyoda bir jinoyat turi borki, bu jinoyatni qilmoqchi bo'lganlar qo'liga tushsa qonun oldida jazoga tortiladi, bu jinoyatni qilganlar esa qonunan jazolanmaydi. Bu qaysi jinoyat turi ekanligini bilasizmi?

Bundan 50 yil oldin Colgate tish pastasi ishlab chiqaruvchi kompaniyaga bir kishi kompaniya daromadlarini 40 foizga oshirish va buning uchun deyarli hech narsa sarflanmasligi haqida maslahat berishini taklif qiladi. Taklif uchun 100 000 dollar so'raydi. Bu taklifga amal qilgan kompaniya savdolari darhol yanada yurishib ketadi. Bu odam kompaniyaga qanday maslahat bergen edi?

Dunyodagi bolalar uyi bo'lмаган yagona davlat?

Jahonda gazetalarining deyarli yarmi qaerda chop etiladi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Yaponiya.
Banan.
Qadimiy Misr.

Mirzo Ulug'bek.
Asalari.
Rossiyadagi Vologda daryosi.

MUASSIS:
O`zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyatasi.

WWW.uzbeksteel.uz

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2015-yil 6-mayda 03-006 raqam bilan ro'yhatga olingan.



Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O`zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso Poligraf" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani, "Oq ota" hududi "Mash`al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

XANDALAR

Shifokor:

- Hammasiga sigaret bilan aroq aybdor!

Bemor:

- Xayriyat-ye, do'xtir, ayb men damikin, deb o'ylabman...

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqt 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O`zmetkombinat"
AJda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №

IBRATLI SO'ZLAR

* Ko'p xato qilishdan qo'rqmang, faqat bir xatoni gayta takrorlamang, shundagina siz xatolar orqali o'sganingizni sezsa boshlaysiz.

* Agar siz hech narsadan xafa bo'lmaslikni o'rgan-gan bo'lsangiz, demak siz inson qalbini sezishga, hurmat qilishga qodirsiz.

* Qachonki siz sevib shug'ullanadigan ishingizni topsangiz, siz undan mo'jiza yaratara olishingizni tushunib yetasiz va yaratasziz ham. Mana shunga iqtidor deyiladi.

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

DUNYO TEZLASHIB KETDI...

Bilasizmi... dunyo tezlashib ketdi...

Odamlarning ko'zlari atrofga emas, telefonga qaraydi...

Kim biladi, balki Siz ham yoningizdagи odamlarni ko'rmayotgandirsiz...

Yoningizdagи odamlarga e'tiborli bo'ling....

ICHINGDAGI BO'RILAR

Bir bolaning buvasi unga hayot saboqlaridan gapirib shunday dedi:

- Bolaginam, har bir insonning ichida go'yo ikkita bo'ri yashaydi. Ular doimo bir-biri bilan kurashadi.

Bo'rilarining biri ochko'z, badjahl, yolg'onchi bo'lsa, ikkinchisi rostgo'y, mehribon, ochiqko'ngil va saxiydir. Buvasining gaplaridan ta'sirlangan nabira so'radi:

- Buvajon, oxirida qaysi bo'ri yutib chiqadi?

- Sen qaysi birini ko'proq boqsang, o'shanisi yutib chiqadi, - dedi buvasi.

KONDITSIONERDAN FOYDALANISHDA NIMALARGA AHAMIYAT BERISH KERAK?

* Agar konditsionerdan uzoq vaqt foydalilmagan bo'lsa, uni ishlashidan avval xonani 20-30 daqiqa davomida shamollatib qo'yish kerak.

* Konditsionerning havo purkash joyida hech qanday to'siq bo'lmasligi kerak. Aks holda, elektr energiyasining behuda sarflangani qoladi.

* Hech qachon juda past haroratni tanlamang.

* Konditsioner yoqilganda havo oqiminiyuqoriga, ya'ni shiftga yo'naltiring. Shunda sovuq havo xona bo'ylab juda tez tarqaladi.

* Shuni unutmaslik lozimki, bolalar bo'lgan xonada konditsionerlarni yoqib qo'yish yaramaydi.

* Filtrni bir oyda bir marta, agar konditsioner o'rnatilgan joyda changmidori ko'p bo'lsa, undan ham ko'proq tozalab turish kerak. Avval filtr changyutkich yordamida tozalanadi, so'ng suv bilan yaxshilab yuboriladi.



Chaqalog'i bilan o'ynab o'tirgan ayol:

- Senga mazza-da... Ovqatlana-san, uxlaysan, keyin yana ovqatla-nasan, ... uxlaysan... - deb bolasiga gapirayotsa, qo'shni xonada tele-vizor ko'rib yotgan eri:

- Haqqim bor! Bugun yakshan-ba - dam olish kunim! - dermish.